UDK: 316.34:616.12:37

Qodirov Umarali Do‘stqobilovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari doktori, professor

KONSAGVIN NIKOHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI VA OQIBATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy, psixologik va tibbiy jihatlari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda bunday nikohlarning shakllanish sabablari sifatida an'analar, iqtisodiy manfaatlar, ijtimoiy muhit, ishonch va emosional yaqinlik kabi omillar yoritilgan. Shu bilan birga, konsagvin nikohlarning genetik xavflari, irsiy kasalliklar ehtimoli, shuningdek, oilaviy munosabatlar va shaxs psixologik holatiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Maqolada ushbu nikoh turining ijobiy va salbiy ijtimoiy-psixologik oqibatlari tahlil qilinib, ularni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar, jumladan genetik maslahat, psixologik yordam va aholi o‘rtasida ma’rifiy ishlar olib borish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: konsagvin nikoh, endogamiya, ijtimoiy adaptasiya, psixologik xavfsizlik, oilaviy nizolar, genetika, urf-odatlar, qadriyatlar.

КОНСАГВИННЫЕ БРАКИ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы социальные, психологические и медицинские аспекты браков между близкими родственниками. В исследовании в качестве факторов формирования таких браков рассматриваются традиции, экономические интересы, социальная среда, доверие и эмоциональная близость. Наряду с этим изучены генетические риски консагвинных браков, вероятность наследственных заболеваний, а также их влияние на семейные отношения и психологическое состояние личности. В статье проанализированы положительные и отрицательные социально-психологические последствия данного вида брака и обоснована необходимость практических рекомендаций по их снижению, включая генетическое консультирование, психологическую помощь и проведение просветительской работы среди населения.

Ключевые слова: консагвинный брак, эндогамия, социальная адаптация, психологическая безопасность, семейные конфликты, генетика, традиции, ценности.

CONSANGUINEOUS MARRIAGES: SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CAUSES AND CONSEQUENCES

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the social, psychological, and medical aspects of marriages between close relatives. The study identifies traditions, economic interests, social environment, trust, and emotional closeness as key factors influencing the formation of such marriages. It also examines the genetic risks associated with consanguineous marriages, the likelihood of hereditary diseases, and their impact on family relationships and individual psychological well-being. The article analyzes both the positive and negative socio-psychological consequences of this type of marriage and substantiates the need for practical recommendations to reduce adverse outcomes, including genetic counseling, psychological support, and public awareness initiatives.

Keywords: consanguineous marriage, endogamy, social adaptation, psychological safety, family conflicts, genetics, traditions, values.

Yaqin qarindoshlik nikohi — bu genetik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tuziladigan nikoh shakli bo‘lib, u insonlar o‘rtasidagi qon-qarindoshlik darajasiga asoslanadi. Bunday nikohlar odatda bir avlod doirasida yoki yaqin avlodlar o‘rtasida kuzatiladi va jamiyatlarda turli madaniy, an'anaviy hamda ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Ilmiy adabiyotlarda yaqin qarindoshlik nikohi “konsagvin nikoh” tushunchasi bilan ham ifodalanadi va u genetik o‘xshashlik darajasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda konsagvin, ya’ni yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar turli sohalardan ko‘rib chiqilgan. Jamiyatshunoslik va sosiologiya jihatidan, bunday nikohlar an'ana va urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liq ekani qayd etiladi [3]. Ularda oilaviy boylikni saqlash, urug‘-qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash va ijtimoiy tartibni ta’minlash asosiy motivlar sifatida ko‘rsatilgan. Sharqiy va qishloq jamiyatlarda bunday nikohlar ko‘p hollarda ijtimoiy moslashuv, ishonch va yaqinlik hissini kuchaytirish vositasi sifatida qaraladi [4].

Psixologik nuqtai nazardan, konsagvin nikohlar oilaviy bosim, tanishlik va emosional yaqinlik kabi omillar ta’sirida shakllanishi mumkinligi ta’kidlanadi [6]. Bunday nikohlarda shaxslar ichki xavfsizlik va psixoemosional barqarorlikni yuqori darajada his qiladi, chunki ular o‘z muhiti va qarindoshlari bilan yaxshi tanish. Shu bilan birga, ijtimoiy bosim va katta avlodning tavsiyalari psixologik jihatdan shaxsning mustaqil qaror qabul qilishini cheklashga olib kelishi mumkinligi ham qayd qilingan.

Tibbiy va genetik adabiyotlarda konsagvin nikohlardan tug‘ilgan bolalarda resessiv genlar ortishi va tug‘ma nuqsonlar xavfi yuqori ekani ko‘rsatilgan [3]. Masalan, tug‘ma genetik kasalliklar, aqliy rivojlanishda ortda qolish, immunitet zaifligi va ba’zi tug‘ilish asoratlari jihatidan bunday nikohlarning xavfi sezilarli. Shu bois, zamonaviy tadqiqotlarda genetik maslahat, skrining tekshiruvlari va profilaktik choralar muhim profilaktika vositasi sifatida ta’kidlanadi [7].

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda konsagvin nikohlar ijobiy oqibatlari ham qayd qilingan. U oilaviy birlikni mustahkamlaydi, moddiy resurslarni saqlashga yordam beradi va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini osonlashtiradi. Ammo bu ijobiy

jihatlar bilan bir qatorda salbiy ijtimoiy-psixologik va tibbiy xavflar ham mavjudligini ta’kidlaydi [9].

Milliy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston aholisida genetik mutasiyalar va irsiy kasalliklarga moyillik yuqori darajada aniqlangan. Masalan, mamlakatda o‘tkazilgan genom tadqiqotlarida har ikkinchi bolada irsiy mutasiyalar (patologik genlarning tashuvchisi) aniqlanib, bu xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkichdan taxminan ikki barobar yuqori ekani ma’lum qilingan [11].

Umuman, konsagvin nikohlar borasidagi adabiyotlar turli sohalarda — sosiologiya, psixologiya, tibbiyot va genetikada — keng tadqiq qilingan. Ular an'ana va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq ijtimoiy sabablar, emosional yaqinlik va ishonch kabi psixologik omillar hamda genetik va tibbiy xavflarning kompleks ta’siri bilan xarakterlanadi [1;2].

Yaqin qarindoshlik nikohlari turlarga ajratilganda, avvalo qarindoshlik darajasiga qarab farqlanadi. Eng ko‘p uchraydigan turlaridan biri — birinchi darajali qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh bo‘lib, bunda aka-uka, opa-singil kabi yaqin qon qarindoshlar nazarda tutiladi, ammo bu tur aksariyat jamiyatlarda qonunan taqiqlangan. Ikkinchi darajali qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar esa amakivachcha, xolavachcha, tog‘avachcha kabi qarindoshlar o‘rtasida tuziladi va ko‘plab an'anaviy jamiyatlarda keng tarqalgan hisoblanadi. Shuningdek, uchinchi darajali qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar ham mavjud bo‘lib, ularda qarindoshlik aloqasi nisbatan uzoqroq bo‘ladi, masalan, ikkinchi avlod va undan keyingi qarindoshlar.

Yaqin qarindoshlik nikohlari turlarini yana genealogik va ijtimoiy jihatdan ham tasniflash mumkin. Genealogik nuqtai nazardan ular parallel va kross-qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarga bo‘linadi. Parallel qarindoshlar deganda, bir jinsli aka-uka yoki opa-singil farzandlari o‘rtasidagi nikoh tushunilsa, kross-qarindoshlarda esa turli jinsli qarindoshlar farzandlari o‘rtasidagi nikoh nazarda tutiladi. Ijtimoiy jihatdan esa bunday nikohlar an'anaviy (urf-odatlarga asoslangan), iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liq yoki oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Konsagvin nikoh jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilishi va tarixiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning turlari ham aynan shu omillar ta’sirida shakllanib, turli xalq va hududlarda turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy sabablari jamiyatning tarixiy rivojlanishi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy tuzilishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Ko‘plab an'anaviy jamiyatlarda bunday nikohlar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan urf-odat va an'analar ta’sirida saqlanib qolgan bo‘lib, oilaviy barqarorlik va qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash vositasi sifatida qaraladi. Ayniqsa, oila va urug‘-qarindoshlik munosabatlari markaziy o‘rin tutadigan muhitlarda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar ijtimoiy jihatdan ma’qul va hatto afzal deb baholanishi mumkin.

Bunday nikohlarning yana bir muhim ijtimoiy sababi iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liqdir. Oilaviy mulkni, yer-suvni yoki boshqa moddiy boyliklarni begona oilalarga chiqib ketmasligini ta’minlash maqsadida qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish afzal ko‘riladi. Bu holat, ayniqsa, qishloq joylarda va an'anaviy iqtisodiy

munosabatlar ustun bo‘lgan hududlarda ko‘proq uchraydi. Shu bilan birga, bunday nikohlar oilaviy resurslarni bir doirada saqlash va o‘zaro yordam tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy muhit va jamoatchilik fikri ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Kichik jamoalarda yoki yopiq ijtimoiy guruhlarda odamlar ko‘proq bir-birini yaxshi taniydi, ishonch darajasi yuqori bo‘ladi va tashqi muhitdan keladigan xavf-xatarlardan himoyalanish maqsadida “o‘z oramizdan” nikoh tuzishga intilish kuchli bo‘ladi. Bu holat ijtimoiy nazorat mexanizmini ham osonlashtiradi, chunki kelin-kuyovning kelib chiqishi, xulq-atvori va oilasi haqida ma’lumotlar oldindan ma’lum bo‘ladi.

Shuningdek, ta’lim darajasi va axborotga yetish imkoniyati ham bunday nikohlarning tarqalishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim darajasi past yoki ilmiy ma’lumotlar yetarlicha tarqalmagan jamiyatlarda yaqin qarindoshlik nikohlarining ehtimoliy salbiy oqibatlari haqidagi tushunchalar cheklangan bo‘lishi mumkin. Natijada, an'anaviy qarashlar ustuvor bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda ota-ona yoki katta avlod vakillarining qaror qabul qilishdagi ustun mavqei ham yoshlarning tanlov erkinligini cheklab, qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzishga olib keladi.

Umuman olganda, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ular an'ana, iqtisodiy manfaat, ijtimoiy ishonch va nazorat, shuningdek, ta’lim va axborot darajasi kabi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning psixologik sabablari, avvalo, insonlarning yaqinlik, ishonch va xavfsizlikka bo‘lgan tabiiy ehtiyojlari bilan bog‘liq holda shakllanadi. Odatda inson o‘ziga tanish muhitda, yaxshi bilgan odamlar orasida o‘zini erkin va xotirjam his qiladi. Shuning uchun ham qarindoshlar o‘rtasida shakllangan uzoq yillik munosabatlar, o‘zaro tushunish va ishonch nikoh qarorini qabul qilishda muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vaziyatda noma’lumlik va noaniqlik omillari kam bo‘ladi, bu esa shaxsda xavotir darajasini pasaytiradi va qaror qabul qilishni yengillashtiradi.

Fikrimizcha, mazkur nikohlarning yuzaga kelishida bolalikdan shakllangan emosional bog‘liqlik ham muhim rol o‘ynaydi. Qarindoshlar o‘rtasidagi doimiy muloqot, birga o‘sish va o‘xshash tarbiya muhitida shakllangan umumiy qadriyatlar o‘zaro yaqinlik hissini kuchaytiradi. Natijada bunday munosabatlar ba’zan romantik yoki oilaviy munosabatlarga aylanishi mumkin. Psixologiya nuqtai nazaridan bu holat “tanishlik effekti” bilan izohlanadi, ya’ni inson ko‘p ko‘rgan va bilgan shaxslarga nisbatan ko‘proq ijobiy munosabat bildirishga moyil bo‘ladi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning yana bir psixologik sababi — oilaviy ta’sir va bosimdir. Ayrim hollarda ota-ona yoki katta avlod vakillari tomonidan berilgan tavsiyalar, kutilmalar va hatto bosimlar shaxsning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini cheklashi mumkin. Bunday vaziyatda inson ichki rozilikdan ko‘ra, ijtimoiy ma’qullik va oilaviy munosabatlarni saqlab qolishni ustun qo‘yadi. Bu esa psixologik jihatdan konformizm, ya’ni guruh talablariga moslashish tendensiyasi bilan bog‘liq.

Shuningdek, ayrim shaxslarda yangilikdan qo‘rqish, noma’lum odam bilan munosabat qurishga nisbatan ishonchsizlik kabi xususiyatlar ham bunday nikohlarga moyillikni kuchaytiradi. Yaqin qarindosh bilan nikoh qurish esa ular uchun psixologik jihatdan oson va xavfsiz tanlov bo‘lib ko‘rinadi. Bunda shaxs o‘zini himoyalangan his qiladi va munosabatlarda kutilmagan holatlar kam bo‘lishiga ishonadi.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning psixologik sabablari inson psixikasidagi ishonch, yaqinlik, xavfsizlikka intilish, emosional bog‘liqlik, ijtimoiy ta’sirga bo‘ysunuvchanlik va noaniqlikdan qochish kabi omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari jamiyat va oila tizimiga kompleks tarzda ta’sir ko‘rsatadi. Bunday nikohlar ayrim hollarda oilaviy birlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlashi mumkin, chunki qarindoshlar o‘rtasida avvaldan shakllangan yaqin munosabatlar, umumiy qadriyatlar va o‘zaro tushunish darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa oilaviy nizolarning kamroq yuzaga kelishiga yoki ularni tezroq hal etishga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, bunday nikohlarda oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchli bo‘lib, yosh oilalar katta avlod yordamini osonroq his qiladilar.

Biroq ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan salbiy oqibatlar ham sezilarli bo‘lishi mumkin. Avvalo, oilaviy munosabatlarda rollar va chegaralar noaniqlashishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ya’ni qarindoshlik va nikoh munosabatlari bir-biriga qorishib ketib, shaxslararo munosabatlarda murakkabliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, bir vaqtning o‘zida ham qarindosh, ham turmush o‘rtoq bo‘lgan shaxslar o‘rtasida psixologik ziddiyatlar, rollar to‘qnashuvi va emosional zo‘riqish holatlari paydo bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, bunday nikohlar ijtimoiy muhit bilan munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim jamiyatlarda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar tanqidiy qarashlarga sabab bo‘lishi, bu esa oila a’zolarida ijtimoiy bosim, uyalish yoki izolyasiya hissini keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat shaxsning o‘zini baholashi va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida mustaqil qaror qabul qilish imkoniyati cheklangan bo‘lsa, bu ichki norozilik, stress va hatto uzoq muddatli psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Farzandlar tarbiyasi va rivojlanishi nuqtai nazaridan ham muayyan ijtimoiy-psixologik ta’sirlar kuzatiladi. Oiladagi munosabatlar tartibi, katta avlod ta’sirining kuchliligi va an'anaviy qarashlarning ustunligi bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Ba’zi hollarda bu ijobiy natijalarga, ya’ni tartib-intizom va qadriyatlarga hurmat shakllanishiga olib kelsa, boshqa hollarda bolalarning mustaqil fikrlashi cheklanishi, ijtimoiy moslashuv jarayoni qiyinlashishi mumkin.

Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning ijtimoiy-psixologik oqibatlari ikki qirrali bo‘lib, ularda ijobiy jihatlar bilan birga salbiy holatlar ham mavjud. Bu oqibatlar ko‘p jihatdan jamiyatning madaniy darajasi, oilaviy munosabatlar tizimi va shaxslarning psixologik xususiyatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Konsagvin nikohlar tibbiy nuqtai nazardan, avvalo, genetik xavflarning ortishi bilan xarakterlanadi. Bunday nikohlarda er-xotin o‘rtasida umumiy ajdodlar

bo‘lgani sababli, ularning genetik materialida o‘xshashlik darajasi yuqori bo‘ladi. Natijada, odatda yashirin holda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan resessiv genlar ikkala tomondan ham bolaga o‘tishi ehtimoli ortib, turli irsiy kasalliklarning namoyon bo‘lish xavfi kuchayadi. Oddiy sharoitda bunday genlar bir tomondan kelganda kasallik yuzaga chiqmasligi mumkin, ammo qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarda bu xavf sezilarli darajada oshadi.

Tibbiy jihatdan bunday nikohlardan tug‘ilgan bolalarda tug‘ma nuqsonlar, jismoniy va aqliy rivojlanishda ortda qolish, immun tizimi zaifligi kabi holatlar ko‘proq uchrashi qayd etilgan. Masalan, ayrim irsiy kasalliklar — qon kasalliklari, metabolik buzilishlar, nevrologik sindromlar va boshqa genetik kasalliklar xavfi yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, bolalarda tug‘ilish paytidagi asoratlar, chaqaloqlar o‘limi yoki erta bolalikdagi kasallanish darajasi ham yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, konsagvin nikohlar ayol salomatligiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Homiladorlik davrida asoratlar, tushish holatlari yoki murakkab tug‘ruq ehtimoli ba’zi hollarda oshishi mumkin. Bu esa nafaqat tibbiy, balki psixologik jihatdan ham oilaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarda xavotir, stress va aybdorlik hissi paydo bo‘lishi mumkin, ayniqsa agar bolada sog‘liq bilan bog‘liq muammolar aniqlansa.

Shu bilan birga, zamonaviy tibbiyotda genetik maslahat va skrining tekshiruvlari orqali ushbu xavflarni ma’lum darajada baholash va oldini olish imkoniyatlari mavjud. Nikohdan oldin yoki homiladorlik davrida o‘tkaziladigan tibbiy tekshiruvlar orqali ehtimoliy irsiy kasalliklar aniqlanib, tegishli choralar ko‘rilishi mumkin. Shu bois, konsagvin nikohlarning tibbiy xavflari haqida xabardorlikni oshirish va profilaktik choralarni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Konsagvin nikohlar tibbiy nuqtai nazardan yuqori genetik xavflar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning oqibatlari avlod salomatligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun bu masalaga ilmiy va ongli yondashuv talab etiladi.

Yaqin qarindoshlik nikohlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish masalasiga kompleks va tizimli yondashuv talab etiladi, chunki bu holat nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham bog‘liqdir. Avvalo, aholi o‘rtasida genetik va tibbiy bilimlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Odamlar yaqin qarindoshlik nikohlarining ehtimoliy xavflari haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lsalar, ular qaror qabul qilishda ongli yondashuvni tanlaydilar. Shu maqsadda ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ayni paytda, nikohdan oldin genetik maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish va keng joriy etish muhimdir. Bo‘lajak juftliklar maxsus mutaxassislar ko‘rigidan o‘tib, o‘zlarida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan irsiy kasalliklar xavfi haqida ma’lumot olishlari mumkin. Bu esa kelgusida sog‘lom avlodni ta’minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xavf yuqori bo‘lgan holatlarda mutaxassislar tomonidan tegishli tavsiyalar berish orqali salbiy oqibatlarning oldini olish imkoniyati mavjud.

Psixologik jihatdan esa oilaviy maslahat va psixokorreksiya ishlarini kuchaytirish zarur. Yoshlarga mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning shaxsiy pozisiyasini mustahkamlash va oilaviy bosimlarga

nisbatan barqarorlikni oshirish muhimdir. Psixologlar va maslahatchilar tomonidan olib boriladigan treninglar, suhbatlar va individual maslahatlar orqali bu yo‘nalishda samarali natijalarga erishish mumkin.

Ijtimoiy darajada esa ta’lim tizimini rivojlantirish va yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish katta ahamiyatga ega. Ta’lim darajasi oshgan sari insonlarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa an'anaviy, ammo salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qarorlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan profilaktik dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi muhimdir. Qonunchilik asoslarini takomillashtirish, tibbiy ko‘riklarni rag‘batlantirish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar bu yo‘nalishda ijobiy samara beradi. Ayniqsa, qishloq joylarda va an'anaviy qarashlar ustun bo‘lgan hududlarda maqsadli dasturlar olib borish zarur.

Umuman olganda, yaqin qarindoshlik nikohlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun tibbiy, psixologik va ijtimoiy choralarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirish kerak. Faqatgina bir tomonlama emas, balki kompleks yondashuv orqali sog‘lom oila va sog‘lom avlodni shakllantirish, tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘.Shoumarov. Oilaning ijtimoiy-psixologik muammolari va ularning yechimlari. “Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent, 630 bet, 4-9-betlar, 2025.

2. U.Qodirov. O‘zbek oilasining ayrim etnopsixologik xususiyatlari. “Oila institutining ijtimoiy-psixologik muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent, 630 bet, 14-18-betlar, 2025.

3. Al-Krenawi, A., & Graham, J. R. Cross-cultural psychiatric assessment of consanguineous marriages in Arab societies. Social Science & Medicine, 48(6), 845–854, 1999.

4. Bittles, A. H. Consanguinity and its relevance to clinical genetics. Clinical Genetics, 60(2), 89–98, 2001.

5. Bittles, A. H., & Black, M. L. Consanguinity, human evolution, and complex diseases. Proceedings of the National Academy of Sciences, 107(Suppl 1), 1779–1786, 2010.

6. Shawky, S., El-Awady, M., El-Sayed, M., & Kamal, F. Genetic disorders in children of consanguineous parents in Egypt: A population-based study. Eastern Mediterranean Health Journal, 19(4), 322–330, 2013.

7. Hamamy, H. Consanguineous marriages: Preconception consultation in primary health care settings. Journal of Community Genetics, 3(3), 185–192, 2012.

8. Modell, B., & Darr, A. Genetic counselling and customary consanguineous marriage. Nature Reviews Genetics, 3(3), 225–229, 2002.

9. Tadmouri, G. O., Nair, P., Obeid, T., Al Ali, M. T., Al Khaja, N., & Hamamy, H. (2009). Consanguinity and reproductive health among Arabs. Reproductive Health, 6(1), 17.

10. Bener, A., & Alali, K. A. The impact of consanguineous marriages on health outcomes in Qatar. Journal of Biosocial Science, 50(3), 325–335, 2018.

11. https://asab.uz/en/blog/every-second-child-in-uzbekistan-found-to-have-a-genetic-mutation/?utm_source.